

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING MEXANIZMLARI

**Jumayev Jasurbek Mengli o‘g‘li**

Termiz muhandislik va texnologiya instituti

**Toshboyeva Hurshida Farhod qizi**

Termiz muhandislik va texnologiya instituti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma’naviy salohiyoti va umuminsoniy qadriyatlarga hamda madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslangan tizimda korrupsiyani yo‘q qilish.

**Kalit so‘zlar:** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi, BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi, Konvensiya.

Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minalash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur.

**Sh.Mirziyoev**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 9 dekabr “Korruptsiyaga qarshi kurash kuni” deb e’lon qilingan va har yili ushbu sana keng nishonlanadi. 2003 yilning ushbu sanasida BMTning Korruptsiyaga qarshi kurash konvensiyasi imzolangan. Mazkur hujjat uni imzolagan davlatlardan pora olish, byudjet mablag‘larini talon-taroj qilish va korrupsiya ortidan boylik orttirish kabilarni jinoyat deb belgilashni talab etadi. Ushbu Konvensiyada korruptsiyaga shunday ta’rif beriladi: “Korruptsiya — bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli

illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qatiy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Korrupsiya past iqtisodiy ko‘rsatkichlarning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, kambag‘allik darajasini kamaytirish va rivojlanishni ta’minalash uchun eng katta to‘siq hisoblanadi”. “Korrupsiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosи (lotin tilidan olingan) Sindirmoq, zarar yetkazmoq, buzmoq, bekor qilmoq. G‘arb mutafakkirlaridan biri Sharl Monteskye korrupsiyani quydagicha talqin etgan. “Asrlar tajribasidan ma’lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, uni suiste’mol qilishga moyil bo‘ladi va u ma’lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo‘nalishda yuradi.” Korrupsion qilmishlarga oid munosabat Vatanimiz tarixida ham ancha qadimdan mavjud. Xususan, buyuk bobomiz Amir Temurning “Temur tuzuklarida” ham amaldorlar xalqdan o‘lpon(soliq) yig‘ishda ham, “Ipak yo‘li” dan o‘tayotgan savdogarlar karvonlaridan olinadigan yig‘imlarni olishda adoltli va insof bilan yondoshishlari belgilab qo‘yilgan. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov mazkur turdagи jinoyatni shunday: “Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor. Bu korrupsiya va poraxo‘rlik. Bu illat nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga bevosita tahdid tug‘diradi” deb ta’riflab, bu jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha bir qator tavsiyalar bergen edi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis palatalrining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz ”mavzusidagi ma’ruzasida: “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbazarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minalash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur” deb ta’kidladi.

Mamlakatimizda “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul

qilinib, Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma'qullangan. Prezident tomonidan 2017 yil 3 yanvarda tasdiqlanib, 4 yanvardan kuchga kirdi. Qonun 34 moddadan iborat. Ushbu qonunning 4-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari Porkuratura, Milliy xavfsizlik xizmati, Adliya, Ichki ishlar, Dalvt bojxona xizmati hamda OAVlari va fuqarolik institutlari o'rtasida hamkorlikni ta'minlash bu boradagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni davlat organlari faoliyatining ochiqligini va hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlari, mansabdor shaxslarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadlariga xizmat qilmoqda. Qonunda korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbazarlik, manfaatlар to'qnashuvi kabi iboralarning mazmuni huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Qonun asosida davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoevning 2022 yil 2 fevraldag'i «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar o'z mazmun mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi. Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlar belgilanganligi alohida qayd etildi. Qonun normalarini hayotga tatbiq etish maqsadida yuqorida ko'rsatilgan Prezidentimiz qarori bilan 2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi

tasdiqlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi tomonidan "Korrupsiyasiz ta'lim" deb nomlangan rangli, o'quv ko'rgazma nashr etilib, respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalariga yetkazildi. Jumladan, bizning institutimiz ham mazkur ko'rgazma bilan ta'minlandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad: - yosh avlodning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; - davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarni amalga oshirish; - korruption huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korruption huquqbazarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tatbiq etishdan iboratdir. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari Qonunning 16-, 17-, 18-moddalarida o'z ifodasini topgan. Ta'kidlash joizki, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan, huquqiy ta'lim va tarbiya jihatidan etuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'l mish korrupsiyaga yo'l qo'yaydilar. Bas, shunday ekan, o'zimizga xulosa qilishimiz, farzandlarimizni halollik, poklik kabi eng yuksak ideallar ruhida tarbiyalashimiz, korrupsiyaning har qanday ko'rinishini bartaraf etish uchun birgalikda kurashishimiz bugunning eng dolzarb vazifasidir

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.SH.M. Mirziyovey «Erkin va Farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». O'zbekiston-2016.
3. SH.M. Mirziyovey «Taqnidiy tahlil,qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». O'zbekiston-2017.